Fanlar akademiyalari Xalqaro assotsiatsiyasi videokonferensiyasi o’tkaziladi

Joriy yil 23-sentyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan Fanlar akademiyalari Xalqaro assotsiatsiyasi (MAAN) Kengashining videokonferensiya formatida qo’shma yig’ilishi o’tkaziladi.

Ushbu videokonferentsiyada Fanlar akademiyalari Xalqaro assotsiatsiyasining 2019-2020 yildagi faoliyati natijalari bo’yicha qarorlarni, Nizom hamda Assotsiatsiya a’zolarini tasdiqlash, shuningdek, alohida ilmiy kengashlar va Yosh olimlar kengashi qoidalari masalalari ko’rib chiqilishi rejalashtirilgan. Ushbu tashabbus O’zbekiston Fanlar akademiyasi bilan jahonning boshqa davlatlar fanlar akademiyalari o’rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan.